



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2021
1/3**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Ганнева М.Х. – соц.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.

Рахмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Ширина Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2020

МУНДАРИЖА

Тарих

Бабалджанов Х., Солпиев М. Ўзбекистонда меҳнат заҳиралари тизимининг ташкил этилиши ва 1941-1945 йиллардаги фаолияти.....	
Бўтаев Ж. Самарқанд вилоятининг аҳоли таркиби хусусида (XIX асрнинг иккинчи ярми).....	
Гурсунов Н. Жанубий Ўзбекистон аҳолиси таомлари, пазандачилиги ва меҳмоннавозлигидаги: анъанавийлик ва замонавийлик.....	
Шакпиров И. Из истории взаимоотношений Узбекистана и Сингапура в сфере туризма (1991-2020).....	

Фалсафа

Аманов Ғ. Ижтимоийлашув жараёнлар тадрижи ва таҳлили.....	
Ачилов Ш. От сўз транспозициясини ифодалашда маданиятлараро мулоқотнинг айрим хусусиятлари.....	
Бойматов Ф. Ўзбекистоннинг туризм таракқиётида жаҳон тажрибаси.....	
Думаров М. Ижтимоий реаликка муносабат экзистенциал ички зиддиятлар ифодаси сифатида.....	
Жаббаров У. Ўқув жараёнига тьюторлик технологиясини жорий этишнинг илмий-амалий асослари.....	
Замплова Р. Бўлғуси тарих ўқитувчисининг тарихий тафаккурини шакллантиришнинг моҳияти ва тузилиши.....	
Зияев Ф. Ўқув машғулот гуруҳи босқон улоқтирувчиларни улоқтириш техникасини биомеханик таҳлили.....	
Каримов А. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш жараёнида жисмоний тарбия ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини такомиллаштириш.....	
Karimov I. Yuqori malakali velosipedchi trekchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini boshqarish.....	
Маннопов Х. Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлашнинг айрим жиҳатлари хусусида.....	
Мирзакулов И. Жисмоний тарбия таълими жараёнида талабаларда экологик маданиятни ривожлантириш ижтимоий-педагогик зарурят.....	
Муллабоева Н. Шарқда ёлғизлик ҳақидаги қарашлар.....	
Мо'минова Х. Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologining faoliyatini mazmun va mohiyati.....	
Мухаммадиев К. Жисмоний тарбия машғулотлари жараёни самарадорлигини оширишнинг долзарб педагогик муаммолари.....	
Набиева Н. Мафкура – ижтимоий фанларда тадқиқот объекти сифатида.....	
Nafasov M. Ta'lim jara'oni mobol tehnologiyalarni joriy etish zaruriyati.....	
Nishonov S. Markaziy Osiё mutaфakirларининг ижодида инсон тушунчаси ва уларнинг Хусайн Вонз Кошифий ва Жалоллидин Давонийларнинг илмий фаолиятига таъсири.....	
Одильжонова А. Креативлик шаклланишининг сензитив даври.....	
Отакулов Ш. Гендер тенгликка амал қилишнинг ижтимоий-сиёсий жиҳатлари.....	
Пайзиева М. Ўқитувчиларнинг педагогик-психологик тайёргарлигини таркиб топтириш парадигмалари.....	
Рахматова З. Болалар энциклопедик лугатлари маданиятлараро алоқани таъминлаш воситаси сифатида.....	
Рахматуллаева Г. , Мелдбоева Г. Organik kimyoni o'qitish samaradorligini oshirishda nostandart testlardan foydalanish.....	
Рустамова Т. Шахсда ёлғизликни шаклланиш омиллари.....	
Саидова З. Нотўқима газламалардан фойдаланиб креатив – тиббий бош кийим лойиҳаларини яратиш.....	
Sarayeva S. "Vaqt" tushunchasining nazariy va falsafiy jihatlari.....	
Fayziyev Z. "Etnos", "millat" va "xalq" tushunchalarning kategorial tahlilining ayrim jihatlari.....	
Хамудов М. Спорт психологияси методлари ва спорт мусобақаларининг психологик таҳлиллари.....	
Xolmuratov O. Sport ixtisoslashuvining boshlang'ich bosqichida yosh velosipedchi shossehilarning mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish.....	
Хуррамов М. 1991-2016 йилларда Ўзбекистон – Қозоғистон Республикалари ўртасидаги минтақавий ва икки томонлама муносабатлар вектори.....	
Chernikova E. Yuqori malakali velosipedchilarning mashg'ulot jarayoni muammolari dolzarbligi masalasi.....	
Yusupova Sh. Ingliz tili darslarida talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish uchun cilil tehnologiyasini kuldash.....	

Филология

Abuzalova M. , Kobilova A. Tibbiy perifractalarga oid ayrim mulohazalar.....	
Алнева М., Сиддикова И. Замонавий миллий медиа маконда медиадискурс масалалари.....	
Асронова М. Ўзбек ва инглиз сиёсий дискурсларида замонавий ҳикматларнинг ифодаланиши.....	
Akhmedova M. Tilda maъnaviyat: mazmunii maydon.....	
Бўронов А. Олтой тилининг лингфондида мазмун аниқ сақланиб келаётган туркий тилларга хос “Тў” ва “Қи” лексемаларининг қиёсий таҳлили.....	
Ёрматова Ё. Интонация ва унинг жаҳон тилшунослигидаги талқини.....	
Маматова Ф. Инглиз ва ўзбек тилларидаги эфемизмларни типологик тадқиқ қилиш.....	
Nuraliyeva O., Raximova N. Toni morrison hayoti va ijodi tahlili.....	
Нуруллаев М. Диний матнларда таржимонларнинг сўз қўллаш маҳорати.....	
Пардаева Н. Анбар отин адабий меросининг манбалари.....	
Raxmatova S., Normurodova N. XX asrda amerika va ingliz adabiyotiga o'z hissasini qo'shgan yozuvchilar.....	
Рахматова З. Болалар энциклопедик лугатлари маданиятлараро алоқани таъминлаш воситаси сифатида.....	
Сабирова Н. Хоразм халфачилигининг илк манбалари.....	
Сиддикова И., Солнева М., Карабаева Б. Инглиз тилида кўриш сезгисини ифодаловчи феълларнинг лингво – концептуал хусусиятлари.....	
Ergashova Sh., Olimzoda P. Ingliz, rus va o'zbek tillarida kasallik nomidan foydalanishning lingvistik xususiyatlari.....	
Yusupova A. O'zbek millatiga xos bo'lgan realiyalar.....	



Mehriniso ABUZALOVA,
Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Aziza KOBILOVA
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
aziza.kobilova2101@gmail.com

BuxDU dotsenti, f.f.n. Z.I.Rasulov taqrizi asosida

SOME CONSIDERATIONS ABOUT MEDICAL PERIPHRASES

Abstract

The article is devoted to the pragmatic study of medical expressions. The scientific significance of the study is reflected in the fact that the linguistic features of periphrases in the Uzbek language, in particular medical periphrases, are revealed, and scientific views are expressed. The views expressed in this article serve as a scientific source when illuminating the linguistic aspects of medical periphrases in Uzbek and English.

Key words: periphrasis, metaphor, metonymy, synecdoche, language, linguistics, Uzbek language, description, medical linguistics, medical euphemism, medical paraphrase, medical metaphor, medical ethics, deontology, psychotherapy.

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О МЕДИЦИНСКИХ ПЕРИФРАЗАХ

Аннотация

Статья посвящена прагматическому изучению медицинских выражений. Научная значимость исследования отражается в том, что выявлены лингвистические особенности перифраз в узбекском языке, в частности медицинские перифразы, и высказаны научные взгляды. Взгляды, выраженные в данной статье, служат научным источником при освещении лингвистических аспектов медицинских перифразов на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: перифраза, метафора, метонимия, синекдоха, язык, лингвистика, узбекский язык, описание, медицинская лингвистика, медицинский эвфемизм, медицинская перифраза, медицинская метафора, медицинская этика, деонтология, психотерапия.

TIBBIY PERIFRAZALARGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Maqola tibbiy tasviriy ifodalarni pragmatik yo'nalishda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'zbek tillidagi perifrazalar, xususan, tibbiy perifrazalarning lingvistik xususiyatlari aniqlanganligi va ilmiy qarashlar bayon etilganligida ko'rinadi. Ushbu maqolada keltirilgan fikr-mulohazalar o'zbek va ingliz tillaridagi tibbiy perifrazalarning lingvistik jihatlari yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, til, tilshunoslik, o'zbek tili, tasvirlash, tibbiy lingvistik, tibbiy evfemizm, tibbiy perifraza, tibbiy metafora, tibbiy etika, deontologiya, psixoterapiya.

KIRISH. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar. Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti bu uning milliy tili va adabiyotidir». Shunday ekan, millat ko'zgusi til ekanligini inobatga olgan holda, uning lug'at boyligini oshirib, tilshunoslik uchun dolzarb bo'lgan masalalarni o'rganib, ularning ma'nolarini chuqur tahlil qila olmog'imiz kerak.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Jahon tilshunosligida tilimiz boyligi va ma'no imkoniyatlarining naqadar keng ekanligini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblangan, periferik nomlarni o'z ichiga olgan noaniq nominatsiya vositalari alohida qiziqish uyg'otib kelgan. Nutqning aniq, ta'sirchan va albatta, betakror bo'lishiga xizmat qiladigan tasviriy ifoda (perifraza)larning tibbiy matnlarda hosil bo'lish xususiyatlari, qardosh va qardosh bo'lmagan tillar qiyosida lingvomadaniy tadqiq etilgan etilishiga zaruriyat sezilmoqda. Mamlakatimizda davlat tiliga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi va o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida hamda xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur"ligi, "bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi"[1, 1] alohida qayd etildi. Shu boisdan tibbiy perifrazalarni tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Jahon tilshunosligida ingliz tili perifrazalarining turkumlarga munosabati va matndagi o'ri E.T.Lisovskaya tadqiqotida, perifrazalarning lingvopragmatik xususiyatlari E.L.Tunitskaya dissertatsiyasida, perifrazalarning matbuot tilida ekspressiv vosita sifatidagi o'ri M.A.Sirivlya izlanishlarida tadqiq etilgan [2,3,4].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'zbek tilshunosligida perifrazalar XX asrning 90-yillaridan o'rganila boshlangan. Bu vaqtga qadar perifraza haqidagi ma'lumotlar lug'atlar hamda o'quv qo'llanmalaridagi qisqacha ta'riflardagina iborat bo'lgan xolos [6,7,8]. Perifrazalarga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot H.Shamsiddinov tomonidan e'lon qilingan[8]. U o'z maqolasida perifrazani o'rganish yuzasidan muhim masalalarni o'rtaga tashlagan. Keyinchalik olim doktorlik dissertatsiyasida perifrazalarning funksional-semantik sinonim sifatidagi xususiyatlarini ham yoritib berdi [9, 64].

Perifrazalar haqida SH.Turniyozovning ham maqolasi mavjud bo'lib, unda tasviriy ifodalarning yasalishi xususidagi mulohazalar bayon etilgan[10, 87].

O'zbek tilshunosligida perifractalar ilk bora monografik planda I.Umirov tomonidan o'rganilgan [11, 59]. Unda tadqiqot muallifi bu hodisaning til va nutqqa bo'lgan munosabatini, perifractalarning turlarini, yondosh hodisalar bilan o'xshash hamda farqli jihatlarni belgilashga harakat qilgan.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Biz kundalik hayotimizda ma'lum bir voqelik haqidagi axborotni, shuningdek, shu voqelikka bo'lgan munosabatimizni, hissiy kechinmalarimizni ifodalashda turli vositalardan foydalanamiz. Voqelikni ifodalashda bir qancha usullar mavjud bo'lib, ular kommunikativ intensioning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Ana shunday vositalardan biri perifractalardir. Perifractal hodisasi doirasida birlashuvchi semantik guruhlilar va ularni tashkil etuvchi birliklar tibbiy nutqda voqelanishi orqali o'z vazifasini muayyanlashtiradi. Buning dalili sifatida quyidagi misollarni ko'zdan kechirish mumkin. Masalan: *Siddiqjon garchi hanuz og'zi bemaza va boshi og'irroq bo'lsa ham..kampirning mehribonchiliklaridanmi, ko'ngli ko'tarilib, juda yengil tortdi (A.Qahhor "Qo'shchimor chiroqlari")*. Kasal inson holati Abdulla Qahhor asarida "og'zi bemaza", boshi og'ir" perifractalari orqali berilmoqda. Kasalligi bo'lgan inson ta'm bilish xususiyatini yo'qotadi, lanjlik sabab uzzukun yotgan inson boshini yostiqlardan ko'tara olmaydi. Boshi go'yoki og'ir jism. Bu og'irlikni ko'tarish uchun kasalda kuch yo'q. Yoki yana bir kasallik turlaridan biri SPID kasalligining perifractal ko'rinisida ifodalinishini kuzataylik. *XX asr vabosi – SPID bilan kasallanganlar paydo bo'libdi ("Salomatlik" jurnali). Vabo – dahshatli, ichak kasalligi bilan bog'liq va organizmning suvsizligi oqibatida insonni halok qilishga qodir o'ta yuqumli kasallikdir. Tabiiyki, unga duchor bo'lgan odam bu kasallik sirtmog'idan qutulishi amrimahol. Insonni halokat yoqasiga olib boradigan kasalliklar strasi bugungi asrimizda ko'payib bormoqda va ulardan biri SPIDdir. XX asr vabosi perifractalasi bugungi davrning "zamonaviy" kasalliklari qatoriga kiritilib amaliy natijasiga ko'ra vabo kasalligiga tenglashtirilgan.*

Xuddi shu izohga o'xshab kasallik nomlari perifractal yaratishga asos bo'lgan misollarni talaygina uchratish mumkin. Masalan, *Giyohvandlik yomon illat bo'lib, unga berilib qolgan odam oxir- oqibat tirik murdaga aylanadi ("Salomatlik")*. Giyohvandlik bu – nasha, ko'knori va boshqa narkotik moddalar iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati, bangilikdir. Giyohvand odam tirik murda perifractalasi bilan izohlangan. Tibbiy terminlar va tilga o'zlashib ulgurmagani so'zlar ommalashmaganligi sababli bunday birliklar ma'nosi va perifractal sifatidagi vazifasi matnda (kontekstual) ko'chma ma'noda qo'llanilishidan anglashiladi.

Ma'lumki, so'z ma'nosining ko'chishi metafora, metonimiya, sinekdoxa hamda vazifadoshlik kabi bir qancha usullar orqali yuzaga chiqadi. Bu usullardan, ayniqsa, metafora, metonimiya, sinekdoxa tibbiy perifractalarning hosil bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Metafora muayyan narsa, belgi, harakat nomini boshqasiga o'xshashlik asosida ko'chirish hodisasi. Bunda bir predmetga nom berishda asos bo'lgan belgi ikkinchi bir predmetda ham mavjud bo'ladi. Bunday ma'no ko'chishi tibbiy perifractalarda ham kuzatiladi: *Oshqovoq – sariq oltin.* ("Shifo-info" №44. 03.11.2016. 34-b.). *Go'zallik, salomatlik va yoshlik ramzi –zaytun* (Mehrigiyo reklamasi matnidan). *Yelbo'g'oz- yolg'on homiladorlik haqida nimalarni bilasiz? Homilami yo yo'ldosh?* ("Sug'diyona" №2. 10.01.2019.32-b.). *TIA (Tranzistor ishemik ataka) – sezilmas xastalik* ("Hamshira" №3. 2016. 16-b.). *Bugungi kunda viruslarga qarshi vaktsina yordamida organizmda immunitet hosil qilishdan ortiq o'tkir, ishonchli qurol yo'q.* ("Fan va turmush"). "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilgan ta'rifga ko'ra, Vaktsina lotincha so'zdan olingan bo'lib, *vaccinus- sigirga oid ma'nosini bildiradi. Vaktsina yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan endoriz; emlashda ishlatiladigan doridir. Yuqoridagi misolda uning organizmda immunitet hosil qilishdagi xizmati e'tirof etilgan va immunitet hosil qilishda o'tkir qurol, immunitet hosil qilishda ishonchli qurol degan metafora usulida perifractal hosil qilingan [15, 6]. Yana bir misol: Mashhur fransuz mikrobiologi Lui Paster chechak kasalliklari tug'diruvchi mikroblarni tekshirib o'tirardi ("Gazetadan").* Tug'ish jarayoni harakat o'xshashligi, ya'ni metafora asosida mikroblarga nisbatan aytilayotganini ko'ramiz. *Kasallik tug'diruvchi* birikmasi orqali mikroblar ta'kidlangan.

Ko'p yeyish kasallik moyasidir (Fariduddin Attor). Fariddin Attor ko'p yeyishni kasallik moyasiga qiyoslagan. Ko'p yegan odam kasallik bilan bo'j to'laydi, ko'p yeyishlikning to'lovi kasallikdir, degan ma'nolar o'z ifodasini topgan va inson sog'lig'i haqidagi fikr ta'sirchanligi shu perifractal orqali o'quvchiga yetkazilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, tibbiy perifractalarning metafora asosida vujudga kelishida shakl o'xshashligi emas, balki rang, muayyan belgi-xususiyat o'xshashligi yetakchi o'rin egallaydi.

Metonimiya narsa, belgi va harakatlar o'rtasida aloqadorlik asosidagi ma'no ko'chish hodisasi bo'lib, bunda bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi. Metonimiya asosida hosil bo'lgan tibbiy perifractal ham salmoqli o'rin egallaydi. Kuzatamiz: *Kosmetolog – go'zallik yaratuvchi inson.* ("Shifo-info" №10. 07.03.2019. 11-b.). Kasalliklarni (xususan ichki kasalliklarni) to'g'ri aniqlashi, ularning qanday kechishlarini to'g'ri va aniq tasvirlab berganligi va bu sohada qator kashfiyotlari *Ibn Sinoni hozirgi zamon terapiyasining asoschisi, deb atashga imkon beradi ("Tib qonunlari" I jild, 7-bet).*

Guvohi bo'lganimizdek, metonimiyadagi o'zaro bog'liqlik perifractalarga, jumladan, tibbiy perifractalarga ham xosdir. Faqat tasviriy ifodalardagi bunday bog'liqlik obrazli bo'lishi bilan ajralib turadi.

Perifractalarning yana bir ma'no ko'chish usullari evfemik birliklar orqali namoyon bo'ladi. O'zbek tilida perifractal asosida hosil qilinadigan tibbiy evfemizmlar boshqa turlariga nisbatan miqdoran ko'p. Masalan: qarilik darakhchisi. *Bundan tashqari, suvsizlanish natijasida terida qarilik darakhchisi bo'lgan ajimlar ko'payadi ("Shifo-info"); qarilik davrining ilk alomati. Eshita olmay qolish jismoniy nuqson yoxud tobora yaqinlashib kelayotgan qarilik davrining ilk alomati sifatida tushuniladi. ("Shifo-info"); qizlik iffati. Qizlik iffati tug'ma bo'lmisligi yoxud bolalikda o'zi bilmagan holda noxos buzilgan bo'lishi mumkin. ("Bekajon").* Nutqiy hosilalarda muayyan predmet, narsa va hodisaning o'ziga xos belgi-xususiyatini tasvirlovchi qarilik darakhchisi, qarilik davrining ilk alomati, qizlik iffati kabi birliklar perifractal asosida hosil bo'lgan evfemizmlardir.

Tibbiy perifractalarning shakllanishi shifokor va bemor muloqotida til vositalarini faol qo'llash bilan xarakterlanadi. Bunday birliklarning qo'llanishi muloqotning eng asosiy mezonlaridan biri – muloyimlik mezoniga amal qilish talabidan kelib chiqadi. Shuningdek, shifokorning professional nazokati, nutqiy etiket, tibbiy deontologiyaning ifodasi sanaladi [14, 4]. Shunday tibbiy birliklari borki, ularni perifractal ko'rinisida nomlash nutqiy muloqot jarayonida muayyan tasavvur hosil qiladi va «muammo»ni yechishga asos bo'ladi. Bu fikrimizni dalillash maqsadida bir necha misollar keltirishni joiz deb bildik. Jumladan, o'lim insonning yurak urishi va shu bilan birga organizm barcha qismlarining to'xtash jarayoni bilan kechadigan holatdir. *Kim o'tdi, hafta o'tdi, nihoyat amaldor shiftga qarab yotganicha, bir-ikki iyak qoqdi– jon berdi ("Mushtum").* Ko'ramizki, "o'lim" so'zining o'zi bir qancha ma'nodoshlariga ega, uslubiy bo'yqordorligiga ko'ra farq qiladi. Ushbu gapda *iyak qoqdi* qurilmasi ajratib olinib, keyin uning ma'nosi aniqlashtirib ko'rsatilgan, ya'ni *jon berdi*. O'lim talvasasida yotmoq *iyak tashlamog* yoki *iyak qoqmoq* birikmalari bilan ham ifodalanadi. *Iyak qoqmoq* perifractalasi ham bu gapda *jon bermoq, o'lmoq, vafot etmoq, joni uzilmoq*

qatoriga qo'shimcha tarzda kuchaytirish ma'nosini qo'shadi. *Har dardning asli ko'p yeyish, har davoning asli ochlikdir* ("Hadisi Sharif"). Islom dinida ro'za tutish 5 farzdan biri deya talqin etilgan. Musulmonlarga yo'l-yo'riqlar dasturil amal qilib berilgan "Hadisi Sharif" da insonning organizmi, sog'lig'i, sog'lom turmush tarzi haqida ko'rsatmalar ko'plab topiladi. Ro'za tutishning farzligi bayon etilib, ochlikning hikmati qay darajada ekanligi payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ko'rsatmalarida aytilgan. Yuqoridagi misolda "ko'p yeyish" "dardning asli", "ochlik" esa "davoning asli" perefrazalarida ifodalangan. O'xshatish asosida so'zlar birikuvi hosil bo'lgan. *Haddan tashqari ko'p suv ichishda yaxshilik yo'q, chunki suv qonga aralashib qon miqdorini orttiradi. Qonning ortishi yurakning qon aylantirishini qiyinlashtiradi va yurakning rizqini (urishlar sonini) tez tugatadi ("Haqiqiy tabobat")*. Ushbu misolda sunning organizmdagi ahamiyati, yurakni qon bilan ta'minlashdagi yordami aytib o'tilgan. Bilamizki, yurak qon aylantirish tizimida muhim o'ringa ega. Qon yurak orqali butun organizmga tarqaladi. Shularni hisobga olgan holda uning me'yorda bo'lishi ham ahamiyatga ega. Bu o'rinda yurakning urishiga nisbatan "yurak rizqi" perifrasi qo'llangan. Yurakning yashab turishi uning urib turishi bilan bog'liq. Yurak urib tursa, demakki, "rizq"i uzilmabdi. Bu borada muallif o'xshatish asosida fikrini ravon ifoda etishga erishgan. *Bahor kelib, uning kasali xuruj qilgan, dam-badam balg'am tupurib, yuk orqalagan hammolday entikardi. (S.Siyoyev "Avaz")* Balg'am – nafas a'zolarining shilliq pardasidan ajralib chiqadigan shilliq yoki yiringli chiqindi. Nafas olish a'zolarida kasalligi bo'lgan va har mavsumda xuruj qiladigan insonlar holati bayon qilinib, nafas olish qiyinligi "yuk orqalagan hammo'l"ga qiyoslangan. Yuki bor odam uni ko'tarishda qiynalsa, nafas olishi ham og'irlashadi. *Bugungi inson jigari – axlat chelagiga, vujudi esa – kasallik qopiga aylangan ("Haqiqiy tabobat")*. O'z sog'lig'iga e'tibor bermaydigan inson, tabiiyki, kasallikka chalinish ehtimoli juda yuqori bo'ladi. Bunday insonlarning tanasi go'yo kasallik bilan to'lgan qopdek. Ularni kasallik ketma-ket bezovta qilaveradi. Noto'g'ri ovqatlanish natijasida barcha elementlarni sintezlovchi a'zo – jigar axlat chelagiga o'xshatilmog'ga. Foydali moddalarni parchalasa, tanaga ham foydali elementlar tarqaladi, yeyishida tartib bo'lmasa, bir uyum axlatni jigar organizmga ham axlat holida uzatadi. Bu borada sog'lom ovqatlanish tartibiga amal qilish nihoyatda muhim.

Qadim zamonlardan kishilar narsa-hodisalar haqida shunchaki ma'lumot berib qolmasdan, ularning muhim xususiyatlarini tasvirlab, qiyoslab, alohida o'ziga xos belgilarini ajratib ta'riflash kabi usullardan foydalanib kelishganligi, ana shunday ifoda usullari natijasida tilning tasviriy vositalari shakllangan bo'lib, ifodalanmoqchi bo'lgan fikrning badiiy obrazlilik, ta'sirchan, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilganligi bizga ma'lum. Bunday vositalarga perifrasi, ibora, idioma kabilarni kiritishganki, bu kabi birliklarni ayrim olimlar sintaksisning o'rganish obyekti sifatida ko'rishsa, boshqa tilshunolar leksikologiya doirasida tadqiq qilishgan. Biz tadqiq qilayotgan tibbiy perifrasi ham strukturasi ko'ra :

- 1) so'z sifatida shakllangan tibbiy perifrasi;
- 2) ibora sifatida shakllangan tibbiy perifrasi;
- 3) so'z birikmasi asosida shakllangan tibbiy perifrasi;
- 4) gap sifatida shakllangan tibbiy perifrasi kabi guruhlarga ajratish mumkin.

So'z sifatida shakllangan tibbiy perifrasi

1. *Gripp kasofat yomon yopishdi, besh-olti kun varaja qildi (Murod Muhammad Do'st "Lolazor")*. Bilamizki, gripp nafas yo'lining yallig'lanishi, haroratning ko'tarilishi bilan kechadigan yuqumli kasallik. Grippga chalinganda inson kuchli harorat ko'tarilishi, nafas olishning qiyinlashuvi, tumov, bosh og'ir'ini boshidan kechiradi. Yana bir jihati borki, bu kasallik vaqtida bartaraf etilmasa va shu bilan birga davolanish samarali va oxirigacha amalga oshirilmasa uning asorati bir necha yillar ichida va umrbod odamni bezovta qilishi aniqlangan. Bu jihatdan u yuqoridagi gapda "kasofat" so'zi bilan birga qo'llanilgan va xuddi shunday ta'rif berilgan.

2. *O'jar ekan bu soldat, deb tashlab qo'yadilar. Ko'p qatori yaranni boqtilar. (N.Safarov. "Olovli izlar")*. Bu gapda boqmoq so'zi davolamoq, shifolamoq ma'nosida kelgan.

Ibora sifatida shakllangan tibbiy perifrasi

1. *Eshon o'zini sal yo'qotayozdi. Tili gapga kelmay galdiraydi (S. Ahmad "Hukm")*; *Tili gapga kelmadi, majolsizlik bilan yana ko'zlarini yumdi. (S. Zuminova "Ko'k chiroqlar")*. "Tili gapga kelmaslik" iborasi qattiq qo'ruv, hayajon, ruhiy yoki jismoniy zarba, kasallik natijasida so'zlay olmaslikni anglatadi. Bunda kasalning ruhiy holati, ya'ni fikrni bir yerga jamlay olmaslik, o'ylaganini nutqida ifodalay bilmasligi bilan kechadi.

2. *Sal sovuq tushdi deguncha, jonini egovlaydigan bod kasali tufayli ayvonga ham chiqolmay qolardi ("Yoshlik" dan)*. Ushbu misolda bog'in va mushaklarning yallig'lanishi (revmatizm, radikulit va shu kabi kasalliklar) sirasiga kiradigan bod kasali "jonni egovlaydigan" iborasi asosida berilgan. Og'riq kasallikning birdan xuruj qilib jonni xatarga qo'yishi, xavotirlanish tufayli bu kasallik inson umrini egov misol kamaytirib boraveradi.

3. *Mana, bugun ham iligidan darmoni qurib qaytdi. Burniga chertsang, yiqiladi. (Shuhrat, "Umr pag'onalari")*. *Iligidan darmoni qurib* birikmasi orqali g'oyat charchagan odamga nisbat berilmog'ga. Insonning iligi tanani quvvat bilan ta'minlash xususiyatiga ega. *Burniga chertsang, yiqiladi* – ibora.

So'z birikmasi asosida shakllangan tibbiy perifrasi

1. *Bu yil dori o'miga dalalarga hasharot kushandisini qo'yib yuborishdi (S.Nurov "Maysalarni ayoz urmaydi")*. Hasharot kushandasi deganda tekinxo'r (parazit) yoki zararkunanda, kasal tarqatuvchi hasharotlarga, kemiruvchilarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy modda nazarda tutilgan

2. *Beshafqat kasal qizning husnigina emas, yoshlik g'ururini ham olib ketdi (S.Shamsiyeva "Shifokor")*. Shafqat bu – insoniy fe'l-atvor bilan bog'liq tushuncha. Uni kasalga nisbatan inkor formada ishlatish insonga xos his-tuyg'u o'xshatishi asosida ma'no ko'chayotganini ko'rsatadi. Kasallikdagi "beshafqat"lik xarakterlari uning odam tanlamasligi, yosh-u qarini o'z iskanjasiga olishi, tushgan organizmda a'zolar salomatligiga zarar yetkazishi, hatto, halokatga olib kelishini nazarda tutadi.

3. *Dard degan narsa anoyi bemorni topsa, tanasidan chiqmay o'tirib oladi. Shuning uchun ham og'rig'ining tayini yo'q bemorlarni "boy kasal" deyishadi ("Mushtum")*. Bunda "boy kasal" pereirasi orqali o'zi og'ir bo'lmasa-da, parvarish talab qilinadigan yoki shunday parvarish uchun bahona bo'lgan kasallik, shunday kasallikka uchragan bemor nazarda tutilgan.

Gap sifatida shakllangan tibbiy perifrasi

1. *Tana temperaturasining pasayishi organizmning tiriklik faoliyatini zaiflashtiradi, kasalliklarga beriluvchanligini oshiradi ("Anatomiya")*. Ushbu gapda "kasalliklarga beriluvchanlik" birikmasi ma'lum bir xastalikka moyillikni, "tiriklik faoliyati" birikmasi organizmning klinik va biologik jihatdan mavjudligi ma'nosida qo'llanganligini ko'ramiz.

2. *Kampir inqillagancha joyiga borib o'tirdi, tizmalarining ko'zini uqalab, og'ir so'lish oldi (X.Sultonov "Onamning yurti")*. 3. *Uch haftadirki, Po'lat shahar kasabxonasida yotibdi. To'rt kungacha olov-otash bo'lib yondi, o'ziga kelmadi (Sh.*

Rashidov "Qudratli to'liqin"). Ushbu gapda olov-otash bo'lib yonmoq birikmasi kuchli isitma qilmoq, isitmasi chiqmoq ma'nosida qo'llangan. Bu perifraza orqali adib qahramon holatini kuchaytirib ko'rsatgan.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida tibbiy nutq perifrazalari atroflicha tadqiq qilinishi va mazkur masalani o'rganishga doir tadqiqotlar zarur. Chunki bunday tadqiqotlar nafaqat nutq lingvistikasi, tibbiyot deontologiyasi, xususan, tibbiyot xodimlari nutq madaniyatini rivojlantirish va tibbiy ta'lim mazmunini boyitishga xizmat qilishi hamda ta'limda o'quv materiali sifatida foydalanish imkonini berishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Perifrazalar narsa-hodisalarning belgi xususiyatlarini o'zida aks ettirish barobarida psixologik omil asosida ham vujudga keladi. Tasviriy ifodalar matnda takrorning oldini olish bilan birga muloqot vakillariga estetik zavq berishi shubhasiz. Aqliy qobiliyat, milliy ustunlik, tug'ish, kasallik, inson tana a'zolari, o'lim, tajovuzkor harakatlar, oilaviy munosabatlar, diniy tushunchalar bilan bog'liq lisoniy tushunchalarning publitsistik matnlarda evfemistik perifrazalanishi muloqotda yuksak nutq madaniyatiga egalikni ko'rsatuvchi faktordir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқени тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони/www.xabar.uz
2. Лисовская Е.Т. Именные перифразы в современном английском языке и их текстовый статус: дисс...кандидата филол...наук. Минск, 1984. -198 стр. 3.Туницкая Е.Л. Перифразирование в лингвопрагматическом аспекте на материале французского дискурса: автореферат дисс... докт...филол. наук. Москва, 2010. -44 стр.
3. Сиривля М.А. Перифраз как экспрессивное средство языка газеты: семантико-прагматический аспект: автореф...кандидата филол...наук. Челябинск, 2007. -23 стр.
4. Абдулхамидова П.Ш. Лексика народной медицины шугнанского языка: автореф...кандидата филол...наук. Душанбе, 2006. -21 стр.
5. Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. - Тошкент, 1985. - Б. 267.
6. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. - Б. 80.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланма. - Тошкент, 2000. -Б. 42.
8. 9 Шамсидинов Х. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1993. -№4. Б. 29-35.
9. 10.Шамсидинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: филол. фанлари д-ри ... дис. - Тошкент, 1999.-Б. 141-173.
10. 11.Турниёзов Ш. Перифразалар деривацион хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар// Жур. Хорижий филология. Самарканд. 2005. - №3. - В. 36-37.
11. 12.Умиров И.Э. Ўзбек тил и парафразалари: филол. фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1996.
12. 13.Айтбоев Д. Ўзбек тилидаги перифразларнинг мотивлашуви ва лексикографик талқини: филол.фан. номзоди .Автореферат. –Тошкент, 2007.
13. Abuzalova M., Gaybullaeva N. Medical Euphemisms' Ways of Formation and their Attitude towards Related Events\ International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October 2019. –Pag. 494-497. <https://www.ijrte.org/download/volume-8-issue-3s/>
14. Kobilova A.B. Features of the use of the periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts. International journal of Psychological Rehabilitation, Vol.24, Issue 07, 2020. – Pag. 8162-8168. <https://www.psychosocial.com/article/PR270794/18979/>